

**E. SARIQOV, B. HAYDAROV,  
Sh. SARIQOV, K. ALLAMJONOV**

# **IQTISOD VA SOLIQ SABOQLARI**

**Umumta'lim maktablarining  
6-sinfi uchun o'quv qo'llanma**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan*

МАМБУРИЙ  
НУСХАЛАР

**TOSHKENT  
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"  
2008**

65 a72

Loyiha rahbari — O'zbekiston Respublikasi

Davlat Soliq qo'mitasi raisi **B. Parpiyev**

65.261.4 a72

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining*

*birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

**Taqrizchilar:** F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi, boshqarma boshlig'i;  
N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;  
X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi, iqtisodiy ta'lim sektori boshlig'i.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisod va soliqqa oid bilimlarni ona tili, adabiyot, geografiya, tarix, mehnat va boshqa fanlar bo'yicha darslar tarkibida o'rganishni osonlashtirish maqsadida yaratildi.

O'quv qo'llanmadagi materiallarning istalganini alohida ajratib, muayyan fan bo'yicha darslarda foydalanish mumkin.

**SHARTLI BELGILAR:**



— Soliqqa oid material



— Tarixga nazar



— Amaliy vaziyat tahlili



— Qiziqarli material

HD 34850  
Og's

65  
I-98

2008/12  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MF

**Iqtisod va soliq saboqlari:** Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun o'quv qol./ E. S. Sariqov, B. Haydarov, Sh. Sariqov, K. Allamjonov; E. Gadoyevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. - 48 b.: rasm.

I.Sariqov, E.S. va boshq.

BBK 65я72  
BBK 65.261.4я72

ISBN 978-9943-309-85-2

© "Yangiyul poligraph service", 2008

© E. Sariqov, 2008

## MUNDARIJA

### I bob. Mulk

1.1. Mulkning paydo bo'lishi .....	4
1.2. Mulk va mulkdor .....	5
1.3. Nimalar mulk bo'la oladi? .....	7
1.4. Mulk shakllari.....	9
1.5. Mulk solig'i .....	13
1.6. Mulk shakllarining o'zgarishi va xususiyashtirish .....	14

### II bob. Banklar

2.1. Banklarning paydo bo'lish tarixi .....	17
2.2. Omonat va qarz .....	18
2.3. Kredit va kredit foizi .....	22
2.4. Banklarning boshqa xizmat turlari .....	24

### III bob. Ishlab chiqarish

3.1. Ishlab chiqarish omillari.....	27
3.2. Mehnat unumdorligi .....	29
3.3. Mehnat taqsimoti va kasblar .....	33
3.4. Soha va tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuv .....	35
3.5. Korxonalarni boshqarish. Menejment.....	38

### IV bob. Ekologiya

4.1. Ekologiya nima? .....	40
4.2. Suv mablag'laridan foydalanganlik uchun soliq .....	42
4.3. Tabiatni muhofaza qilish — hammaning burchi .....	45

## I BOB



## MULK

## 1.1. Mulkning paydo bo'lishi

Beshinchi sinfda shaxsiy va oilaviy mulk haqidagi ba'zi bir ma'lumotlar bilan tanishgan edik. Keling, endi mulk haqida batafsilroq to'xtalaylik.

Xo'sh, mulk qanday paydo bo'lgan?

Dastlab odamlar o'z ehtiyojlarini faqat tabiatdagi narsalar evaziga qondirgan paytlarda hech qanday mulk bo'lmagan. Keyinchalik odamlarning soni va ularning ehtiyojlari ko'payishi natijasida tabiatdagi noz-ne'matlar yetishmay qola boshlagan. Natijada, odamlar ozuqa ko'p bo'lgan yerlarni, o'rmonlarni izlab topib, ularga egalik qila boshlaganlar. Ovchilik bilan shug'ullanish natijasida dastlabki shaxsiy mulk hisoblanmish ov qurollariga ega bo'lganlar. Chorvachilikni o'rganib olganlaridan so'ng, chorva mollariga egalik qilganlar. Dehqonchilik bilan shug'ullanish natijasida esa yerga, turli xil dehqonchilik qurollariga egalik qila boshlaganlar. Odamlarning boshpanaga, kiyim-kechakka va uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyoji ularning bu narsalarga egalik tuyg'usini keltirib chiqargan.

Shu tariqa mulk va uning egasi — **mulkdor** paydo bo'lgan.

Odamlar sonining va ular ehtiyojlarining tobora o'sib borishi borgan sari tabiiy resurslarga bo'lgan zaruratni kuchaytira boshlagan. Natijada



odam egalik qilishi mumkin bo'lgan hamma narsa darhol o'zlashtirilgan va mulkka aylangan. Hatto mulk talashish boshlangan va uning natijasida urushlar ham bo'lib turgan.

Tarixda shunday zamonlar bo'lganki, odamning o'ziga ham mulk sifatida qaralgan. Sizga tarix darsidan ma'lumki, quldorlik tuzumida odamlar mulk sifatida – qul qilib sotilgan va sotib olingan.

Mulkning kimga tegishli ekanligiga qarab shaxsiy, oilaviy va jamoa (qabila) mulklari vujudga kelgan. Davlatlar vujudga kelishi bilan esa davlat mulki ham paydo bo'lgan.



1. Mulk qachon paydo bo'lgan?
2. Eng avval mulkka aylangan narsalarni sanang.
3. Qabila mulki nimalardan tashkil topgan?
4. Amerika qit'asining kashf qilinishiga nima asosiy turtki bo'lgan, deb o'ylaysiz?
5. Odamning o'ziga ham mulk sifatida qaralganmi?
6. Urushlar nima sababdan kelib chiqqan?
7. Davlat mulki qachon paydo bo'lgan?

## 1.2. Mulk va mulkdor

Biror narsa sizning mulkingiz bo'lishi uchun:

- unga to'la xo'jayinlik qilish;
- undan o'z ehtiyojlaringizni qondirish maqsadida foydalanish;
- uni sotish;
- boshqa narsaga almashtirish;
- bировga sovg'a qilish

kabi huquqlariga ega bo'lishingiz kerak. Masalan, kiyim-kechaklaringiz, o'quv qurollaringiz hamda tug'ilgan kuningizda sizga sovg'a qilingan biror buyum sizning mulkingiz hisoblanadi. Chunki, siz ularga to'la xo'jayinlik qilasiz, ulardan o'z ehtiyojlaringizni qondirish maqsadida foydalanasiz. Ularni sotishingiz, boshqa narsalarga almashtirishingiz yoki o'rtog'ingizga sovg'a qilishingiz mumkin. Agar bu vakolatlarning birortasiga ega bo'lmay qolsangiz, u sizning shaxsiy mulkingiz hisoblanmaydi. Uyingizdagi



### Shaxsiy mulk.

televizorni oladigan bo'lsak, unga to'la xo'jayinlik qila olmaysiz. Undan istagan paytingizda foydalana olsangizda, uni sotish, biror narsaga almashtirishga haqqingiz yo'q. Shu sabab, televizor sizning shaxsiy mulkingiz bo'lolmaydi. Televizor, mebel, gilam kabi uy-ro'zg'or buyumlari va uy-joyning o'zi oila mulki hisoblanadi. Ularning mulkdori oila a'zolaridir.



### Oilaviy mulk.

Egasi mavjud bo'lgan har qanday narsa mulk hisoblanadi. Yer yuzida deyarli hamma narsaning egasi bor. Egasi yo'q narsa, ya'ni hech kimniki bo'lmagan narsa mulk hisoblanmaydi. Masalan, osmon, yulduzlar, quyosh hech kimga tegishli emas va ular mulk hisoblanmaydi.



1. Biror narsa sizning mulkingiz bo'lishi uchun, siz qanday huquqlarga ega bo'lishingiz kerak?
2. Sizning qanday mulkingiz bor? Ularning haqiqatan sizning mulkingiz ekanligini asoslang.
3. Oilaviy mulkka misollar keltiring.
4. Egasi yo'q mulk bormi?
5. Davlat mulkiga nimalar kiradi?
6. Hamma narsaning egasi borligi yaxshimi yoki yomonmi?

### 1.3. Nimalar mulk bo'la oladi?

Yer yuzidagi deyarli hamma narsa mulk bo'lishi mumkin. Lekin mulk turlicha bo'ladi. Uning asosiy turlari bilan tanishaylik.

Eng muhim mulk bu hamma uchun muqaddas bo'lgan **yer va ekin maydonlaridir**. Yer maydonlari, bir tomondan bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun kerak. Bizning mamlakatimizda yer davlat mulki hisoblanadi.

Quruqlik va suvdagi o'simliklar va hayvonlar dunyosi, yer osti va boshqa foydali qazilmalar, suv va havo havzalari tabiiy boyliklardir. **Tabiiy boyliklar** ham mulk sanaladi va ularning egasi odatda davlat yoki butun mamlakat aholisi hisoblanadi. Ayrim xorijiy davlatlarda foydali qazilma konlariga shaxslar egalik qilishi mumkin.

**Inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsalar:** uy-joy, bino va inshootlar, zavod va fabrikalar, asbob-uskunalar, mashina va agregatlar, xomashyo va materiallar, energiya manbalari va iste'mol tovarlarining hammasi mulk hisoblanadi.

Bu narsalarning egasi oila, jamoa, alohida olingan shaxs yoki davlat tashkilotlari bo'lishi mumkin.

**Pul mablag'lari, qimmatbaho toshlar va metallar** ham mulk sanaladi. Masalan, bir kishi shaxsiy do'konini sotgan bo'lsin. Demak, uning mulki hisoblanmish do'koni pul ko'rinishidagi mulkka aylandi. Agar bu odam endi shu pulga tilla buyumlar sotib olsa, uning pul shaklidagi mulki tilla buyumlar ko'rinishidagi mulkka aylangan bo'ladi.

**Ma'naviy ozuqa, intellektual va ma'lumot manbalari** ham mulk hisoblanadi. Bu narsalar odamning aqliy mehnati mahsuli bo'lib, bitta nom

bilan **Intellectual mulk** deb ataladi. Bunday mulk turiga fandagi ixtiro va kashfiyotlar, adabiyot va san'at asarlari, yangi texnologiya va loyihalar, turli xil mazmundagi ma'lumot manbalari kiradi.



Intellectual mulk.

Shuningdek, odamning ishchi kuchi, ya'ni jismoniy mehnat qilishga layoqati va imkoniyati ham mulk sanalib, u faqat shu odamning shaxsiy mulki hisoblanadi. Odamning ishchi kuchiga uning o'zidan boshqa odamning egalik qilishi bugungi kunda butun dunyoda ta'qiqlangan.



### Kechagi dehqon – bugungi mulkdor

Do'stlik tumani "Mirzaobod" fermer xo'jaligining raisi, keksa agronom Qulmirza Qambarov birinchilardan bo'lib fermerlikka qo'l urganlardan.

Dehqonga ta'til yo'q ekan, dala uni qishin-yozin o'ziga chorlaydi. Yer bilan tillashmas ekansiz, unga e'tiborni susaytirsangiz, kutgan hosilingiz cho'g'i pasayadi. Natijada, siz bilan hamkorlik qilayotganlarning ishonchi yo'qoladi. Chunki yer halol mehnatni talab qiladi, – deydi tajribali dehqon Qulmirza ota.

O'z yer maydoniga ega bo'lgan fermer xo'jaligini ota izidan borayotgan o'g'il Hasan Qambarov boshqarayapti. Har yili o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni a'lo darajada uddalagan fermer xo'jaligida Muxtor Muhammadiyev, Xolmat Qambarov kabi jami 10 kishidan iborat dehqonlar ishlab, paxtadan 25 sentner o'miga 31 sentner, g'alladan 24 sentner o'miga 50 sentner hosil



ko'tarildi. Ishchilar daromadi har oyda o'rtacha 90 – 100 ming so'm atrofida bo'ladi. Ayrimlarning "Dehqonning kosasi oqarmaydi" degan so'zlari o'mini "kechagi dehqon – bugungi mulkdor" degan ibora egallagani ham shu-da. Davlat rejaralarini 110 – 125 foizga uddalab kelayotgan "Mirzaobod" fermer xo'jaligining faqatgina 2005-yildagi daromadi 30 million so'mga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 11 yanvarda "Meva-sabzavotchilik va uzum sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 255-sonli qarori asosida bir vaqtlar yo'q qilingan bog'lar yana tiklanayapti. Jannatmonand O'zbekistonimiz dalalarida yangi bog'lar barpo etilayapti. Axir, bir fermerga qirq hunar ham oz.

*Manba: "Mulkdor" gazetasi, 7.04.2006-yil.*

1. Yuqoridagi maqolada qanday mulklar keltirilgan?
2. "Kechagi dehqon — bugungi mulkdor" degan ibora nimani anglatadi?



1. Sizning hovlingiz yoki uyingiz joylashgan yer maydoni kimga qarashli?
2. Nima sababdan tabiiy boyliklar davlatga tegishli?
3. Nima sababdan pul mablag'lari ham mulk hisoblanadi?
4. Intellektual mulk deganda nimani tushunasiz?

#### 1.4. Mulk shakllari

Mulk kimga tegishli ekanligiga qarab turli shaklda bo'ladi. Oldingi paragraflarda ta'kidlaganimizdek, biror shaxsning yolg'iz o'ziga, oila a'zolariga, jamoaga, mamlakat aholisiga va davlatga tegishli mulklar bor. Shunday bo'lsada, odatda, mulkning asosan uch turi:

- **shaxsiy mulk,**
- **jamo'a mulki,**
- **davlat mulki**

shakllari haqida gapiriladi.

Biror shaxsning yolg'iz o'ziga tegishli bo'lgan mulk **shaxsiy mulk** deb ataladi.



### Xususiy mulk.

Odatda, biror shaxsga tegishli bo'lgan do'kon, firma, korxonalar, inshoot, avtobus, yuk tashish mashinasi, stanok kabi ishlab chiqarish vositalariga nisbatan "shaxsiy mulk" bilan bir qatorda "**xususiy mulk**" iborasi ham ishlatiladi. "Aliyevning xususiy (yoki shaxsiy) do'koni bor. Valiyevning shaxsiy (yoki xususiy) firmasi bor", degan so'zlarni ko'p eshitgan bo'lsangiz kerak.

Demak, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda foydalanilayotgan shaxsiy mulkni xususiy mulk deb atash ham mumkin ekan.

Agar qo'shningiz yengil avtomobilni o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida minib yurgan bo'lsa, bu avtomobilni **shaxsiy mulk** deb aytish to'g'ri bo'ladi. Agar qo'shningiz avtomobilida yo'lovchi tashib, uni taksi sifatida ishlatsa, bu holda uning avtomobilini xususiy mulk deb atash ham mumkin bo'ladi.

Shaxsiy mulkning eng asosiy belgisi uning egasi aniq bir kishi ekanligidir.

Bir necha kishilardan iborat jamoaga tegishli bo'lgan mulk **jamoat mulki** deb yuritiladi. Oilaviy mulk, mahalla ahli mulki, korxonalar jamoasi mulki, fermer xo'jaligi jamoasi mulki, mamlakat aholisining mulki kabilar jamoat mulkiga misol bo'la oladi. Agar sinfdoshlar pul yig'ib, to'p sotib olsalar, bu to'p ham jamoat mulki bo'ladi.

Jamoat mulkiga jamoaning hamma a'zosi birgalikda egalik qiladi. Masalan, mahalla uchun hashar usulida qurilgan choyxona mahalla

ahlining mulki hisoblanadi. Bu choyxona binosidan, jihozlaridan to'y-marakalarda har bir mahalla a'zosi teng huquq bilan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga bu mulk egasi alohida ajratilmagan, mulk ham egalari o'rtasida taqsimlangan emas. Ya'ni har bir mahalla a'zosisiga choyxonaning qaysi bo'lagi uniki ekanligi ko'rsatilmaydi. Choyxonaga, hatto uning biror bo'lagiga ham hech kim yolg'iz o'zi egalik qila olmaydi.



Jamoa mulki.

Xuddi shu kabi, mamlakat aholisiga taalluqli bo'lgan mulkning ham egasi alohida shaxs bo'lmaydi. Masalan, mamlakatimiz daryolaridagi baliqlar hammamizniki. Ov mavsumi kelganda, daryolardan har bir fuqaro baliq ovlashi mumkin. Shu bilan bir qatorda hech kim falon daryodagi baliqlar meniki, deb ayta olmaydi.



Moskva shahrining meri Yuriy Lujkov ko'chmas mulk solig'i tizimini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Bugungi kunda Moskva shahrida ko'chmas mulk va yer soliqlari shahar budjetining atigi 5% ini tashkil etadi. Lujkov soliq miqdori ko'chmas mulkning haqiqiy narxiga asoslanishi lozim deb hisoblamoqda. U Moskvani Yevropaning boshqa katta shaharlari bilan solishtirdi. Ularning aksaryatida ko'chmas mulk solig'i budjetning 50–60 % ini tashkil etadi. "Biz o'zimizning yer va binolarimizni haqiqiy bozor sharoitida qiymatlashni boshlaganimiz yo'q", – deya ta'kidladi Moskva meri. Jahondagi yirik shaharlarning ko'chmas mulk solig'idan budjetga tushuvchi daromadlarining budjetdagi ulushi:

- Moskva – 4,3 % ;
- London – 20 % ;
- Nyu York – 19 % ;
- Parij – 80 % ;
- Gaga – 50 %.

Manba: "Коммерсантъ – деньги", N27, 08.03.2008.



Davlat mulkidan farqli ravishda tovar, xizmatlar ishlab chiqarishda foydalanilayotgan jamoa mulki — jamoa a'zolarining xususiy mulki deb ham yuritiladi.

Ma'lumki, davlat iqtisodiyot ishtirokchisi bo'lib, mamlakatning barcha fuqarolari manfaatlarini ifodalovchi kuchdir. Jamiyatda hamma bahramand bo'ladigan xizmatlar: umumiy ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, mamlakat havfsizligini ta'minlash, yurtni obod qilish, ijtimoiy tartibni saqlash kabi xizmatlar borki, bularning hammasini davlat to'liq yo'ki qisman o'z zimmasiga oladi. Bu sohalar g'oyat katta xarajat talab qilib, bevosita foyda olish imkonini bermaydi. Bunday xarajatlarni davlat o'z "xamyoni" – byudjet hisobiga qoplaydi. Byudjetning daromadini esa soliqlar tashkil etadi. Keyingi paragrafda so'z yuritiladigan mol-mulk solig'i ham aynan davlat byudjetining daromad manbalaridan biri hisoblanadi.



Respublika ko'chmas mulk birjasi: 461 ko'chmas mulk obyekti 485 mln. so'mga sotildi.

28 oktabrdan 3 noyabrgacha Respublika ko'chmas mulk birjasi savdolarida 461 ko'chmas mulk obyekti 485 mln. so'mga, shu jumladan, davlat mulkiga tegishli obyektlar 149,9 mln. so'mga sotildi.

*Manba: "BVV" gazetasi, 10.11.2005-y.*

1. *Ko'chmas mulk deganda siz nimani tushunasiz?*
2. *Davlat mulkiga tegishli obyektlarning sotilishidan davlat qanday manfaat ko'radi?*
3. *Yuqoridagi matndagi ko'chmas mulklar nima sababdan oldi-sotdi qilinayapti deb o'ylaysiz? Ya'ni, sotuvchi nima sababdan sotayotgan bo'lishi mumkin, xaridor esa nima maqsadda sotib olayotgan bo'lishi mumkin?*



1. Mulkning qanday asosiy shakllari bor?
2. Shaxsiy mulk qachon xususiy mulk deb yuritiladi?
3. Jamoa mulkiga egalik qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Jamoa mulki xususiy mulk bo'lishi mumkinmi?
5. Nima sababdan ba'zi mulklarni davlat o'z tasarrufiga oladi?



### 1.5. Mulk solig'i

Qonunga ko'ra, mol-mulkka ega bo'lganlar kim bo'lishidan qat'i nazar, xoh u jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, mol-mulk solig'i to'lashi kerak.

Jismoniy shaxslar (ya'ni har qanday odam) o'ziga tegishli uy-joy, hovli, kvartira, garaj va boshqa imoratlar va inshootlarning qiymatidan soliq to'laydilar.

Shuningdek yuridik shaxslar (korxonalar, firma, tashkilotlar) ham o'zlari egalik qiluvchi bino-inshootlar va uskunalar qiymatidan soliq to'laydilar.

#### Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalari (2008- yil)

<i>Solliqqa tortish obyekti</i>	<i>Solliq stavkasi</i>
Uy-joylar, kvartiralar, dala hovlilar, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymatidan:	0,5 %

Bu yerda mol-mulkni baholash tartibi maxsus idoralar tomonidan o'rnatilgan bo'ladi. Bunday baho bo'lmagan taqdirda mol-mulkning shartli qiymati Toshkent shahri va viloyat markazlarida 2 100 000 so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 920 000 so'm deya qabul qilinadi. Jismoniy shaxslar mol-mulki Texnik Inventarizatsiyalash Byurosi (TIB) tomonidan baholanadi.

#### Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari (2008- yil)

<i>№</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Solliq stavkasi</i>
1	Yuridik shaxslar	3,5 %
2	O'zi ishlab chiqargan tovarlarni eksport qiluvchi korxonalarining: — sotuvning umumiy hajmida eksport ulushi 15–30% gacha bo'lsa; — agar 30% va undan ko'p bo'lsa	Belgilangan stavka 30%ga kamayadi  Stavka 50%ga kamayadi

Xuddi boshqa soliqlar kabi mol-mulk solig'iga ham Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Qonunga ko'ra, mol-mulk solig'ini quyidagi tashkilotlar to'lamaydi:

- notijorat xayriya tashkilotlari;
- xalqaro tashkilotlar;
- diniy birlashmalar;
- xalq ta'limi va madaniyat muassasalari;
- nogironlar birlashmalari va shu kabilar.



Xalima aya Samarqand shahridan garaji bilan kvartira sotib oldi. Uning kvartirasi Texhik inventarizatsiyalash byurosi tomonidan 1 650 000 so'mga baholangan ekan. Ammo garaji baholanmagan bo'lib chiqdi. Kvartiraning bozor narxi 3 000 000 so'm, garajniki esa 850 000 so'mligi ma'lum bo'lsa, Xalima aya qancha mol-mulk solig'i to'laydi.



1. Mol-mulk solig'ini kimlar to'laydi?
2. Mol-mulk solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?
3. Jismoniy shaxslar qanday mol-mulkklaridan soliq to'laydilar? Yuridik shaxslar-chi?
4. Qanday korxonalar yoki firmalar uchun mol-mulk solig'i stavkasi 50%ga kamaytiriladi? Sizingcha, davlat tomonidan bu kabi imtiyozlar berilishining sababi nimada?
5. Qanday yuridik shaxslar mol-mulk solig'idan ozod etiladi?

## 1.6. Mulk shakllarining o'zgarishi va xususiyashtirish

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hamma mulkning egasi bor. Vaqt o'tishi bilan mulk egalari ham o'zgarib turadi. Masalan, keksalar uy-joyni vasiyat qilib meros tarzida farzandlariga qoldiradi. Natijada, uy-joy yangi mulkdor qo'lga o'tadi. Yoki bir kishi sigirini bozorga olib chiqib sotsa, sigirning egasi boshqa kishi bo'lib qoladi. Bu misollarda mulkning egasi o'zgarsa-da, shakli o'zgarmasdan – shaxsiy mulkligicha qolmoqda.

Aytaylik, bir kishi shaxsiy komputerni bolalar uyiga sovg'a qildi. Bu holda shaxsiy mulk hisoblanmish komputer jamoa mulkiga aylandi. Natijada, mulk shakli o'zgardi.



### Xususiylashtirish — davr talabi

Prezidentimiz Islom Karimovning 2005-yil 14 martda qabul qilingan "2005–2006-yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi qarori mulk o'zining haqiqiy egasini topishida muhim omil bo'layotir. Hujjatga ko'ra, davlat aktivlarini, ya'ni davlatga qarashli korxonalar, obyektlar va aksiyalar paketlarini davlat tender komissiyasi hamda birja savdolari orqali ochiq sotish belgilangan.

Joriy yil boshidan buyon esa 210 ta davlat aktivini 14,2 milliard so'mga, shu jumladan 7,8 million AQSH dollariga sotilishiga erishdik. Savdoga chiqarilayotgan obyektning boshlang'ich narxiga xaridor tomonidan talab bo'lmasa, amaldagi tartibga ko'ra, ular bahosiga bosqichma-bosqich pasaytirish mexanizmi qo'llanilayotgani bu borada ayniqsa yaxshi samara bermoqda.

*Manba: "Mulkdor" gazetasi, 7. 04. 2006-y.*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad nima deb o'ylaysiz?
2. Xususiylashtirishdan kim ko'proq manfaat ko'radi?
3. Xususiylashtirish nima uchun davr talabi deb yuritilayapti?

Ba'zida mamlakat miqyosidagi katta inqilobiy o'zgarishlar natijasida ham mulk shakllari o'zgarib turadi. Masalan, Respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar hamma zavod va fabrikalar davlat mulki bo'lgan bo'lsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, bu korxonalarining ko'pchiligi xususiy yoki jamoa mulkiga aylantirildi. Bu jarayon sizga xususiylashtirish nomi bilan yaxshi tanish bo'lsa kerak.

Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida kichik korxonalar, do'konlar, hunarmandchilik ustaxonalari, uy-joylar — xususiy mulkka, katta-katta davlat korxonalari esa jamoa mulkiga aylanadi.

Yirik korxonalarni davlatdan sotib olish juda katta mablag'ni talab qiladi. Shu sababli bu korxonalar ko'plab kishilardan iborat jamoa mablag'i hisobiga sotib olinib, jamoa mulkiga aylantiriladi.

Aksiyadorlar jamiyatlarining tashkil qilinishi davlat mulkini jamoa mulkiga aylantirishning eng ma'qul usullaridan biridir.



Davlat mulki bo'lgan korxonani jamoa mulkiga aylantirish uchun bu korxonaning aksiyalari chiqariladi. Aksiya — qimmatli qog'oz. Shuning uchun aksiyalar qimmatli qog'ozlar bozori — fond birjalarida sotiladi. Aksiyani sotib olgan har bir shaxs **aksiyador**, deb ataladi. Shu bilan u korxonaning egasi, ya'ni mulkdoriga aylanadi. Unga har yili sotib olgan aksiyasiga yarasha korxonaning yillik foydasidan ma'lum ulush to'lanadi. Aksiyador o'z puliga aksiya sotib olishidan maqsadi ham shu — korxonaga foydasidan ulush olib daromadini ko'paytirish.

Aksiyadorning sotib olgan aksiyasiga yarasha korxonaning yillik foydasidan oladigan ulushi, daromadi **dividend** deb ataladi.

Aytaylik, aksiyador korxonaga chiqargan jami aksiyalarning beshdan bir qismini sotib olgan bo'lsin. Korxonaning o'tgan yillik foydasi esa 1000000 so'mni tashkil qilgan bo'lsin. U holda aksiyadorga sotib olgan aksiyalari qiymatiga mos ravishda korxonaga yillik foydasining ham beshdan bir qismi, ya'ni  $1000000 \cdot \frac{1}{5} = 200000$  so'm pul dividend sifatida to'lanadi.

Shu tufayli aksiyadorlik hozir bizda hissadorlik deb ham yuritilmoqda.



### 240 dollarga shahar

XVII asr boshlarida Gollandiyadan Amerika qit'asiga borib qolgan Piter Minunt hindu qabilalaridan butun Manxetten orolini jami qiymati 240 dollar bo'lgan rang-barang mato bo'laklari, turli xil mayda-chuydalarga ayirboshlab olgan. 1626-yili esa xuddi shu joyda Yangi Amsterdam shahri qurildi. Keyinchalik bu shahar Nyu-York nomini oldi.

Hozirda 240 dollarga Nyu-York shahrida sichqonning inidek kattalikdagi yerni ham sotib olib bo'lmasa keragov! So'ngi paytda yerlik hindular bu "oldi-sotdi"ni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqdalar.



1. Nima sababdan mulk egalari o'zgarib turadi?
2. Mulk shaklining o'zgarishiga misollar keltiring.
3. Tarixdagi inqilobiy o'zgarishlar qanday mulk shakllarining o'zgarishiga olib keladi?
4. Xususiyashtirish nima?
5. Aksiyadorlar jamiyati-chi? Aksiya nima?
6. Aksiyadorga dividend qanday to'lanadi?





## BANKLAR

### 2.1. Banklarning paydo bo'lish tarixi

O'rta asrlarda yer yuzining ko'p joyida pulning asosiy shakli oltin va kumush tangalar edi. Ularni olib yurish noqulay bo'lib, o'g'irlatib qo'yish ehtimoli ham katta bo'lgan.

Shu sababdan odamlar oltin va kumush tangalarini saqlash uchun zargarlarga bera boshlaganlar. Zargarlar esa ularga olgan tangalari haqida tilxat berganlar va asta-sekin pullarni saqlaydigan jamg'armachilar (bankirlar)ga aylanganlar. Zargarlar bergan tilxatlarni savdogarlar tangalar o'rniga bajonudil qabul qilganlar. Chunki bu qog'ozlarni olib yurish qulayligidan tashqari istalgan paytda zargarga borib oltin tangalarga almashtirib olish mumkin bo'lgan. Bu tilxatlar qog'oz pullarning eng dastlabki ko'rinishlaridan biri edi.

Bir kun kelib, boylikka o'ch bir zargar saqlayotgan oltin tangalardan bir qismini egasidan so'ramay ma'lum qo'shimcha haq (foiz) evaziga boshqa kishiga qarzga berib yuborgan.

Bu tangalarni egalari so'rab kelgunlariga qadar, boshqa odamlar tangalarini topshirgan. So'rab kelganlarga zargar shu tangalarni bergan. Keyingi omonatchilar o'z pullarini so'rab kelgunlariga qadar yana boshqa odamlar pullarini saqlashga topshirishgan. Zargar pullarni keyingi omonatchilarga bergan va hokazo.

Bu jarayon ketma-ket davom etavergan. Hech kim hech narsadan shubha qilishiga asos vujudga kelmagan. Eng asosiysi — hech kim-

ning haqiga xiyonat qilmagan holda zargar qo'shimcha daromad topa boshlagan. Buni eshitgan boshqa zargarlar ham saqlayotgan pullarini qarzga berishga o'tganlar. Natijada, zargar — bankirlar odamlarning pullarini nafaqat saqlash uchun qabul qilganlar, balki bu pullarni ma'lum qo'shimcha haq evaziga, ochiqdan-ochiq qarzga beradigan bo'lganlar. Oldinlari, zargarlar pullarni saqlagani uchun ma'lum haq olgan bo'lsalar, keyinchalik odamlarga, pullarini saqlashga berganliklari uchun haq to'lay boshlaganlar. Bu holat omonatchilarga ham ma'qul tushgan.

Shu tariqa, faqat pulni saqlash va qarzga berish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, banklar paydo bo'lgan.

Bu insoniyatning eng katta ixtirolaridan biri edi.



### Antiqa jamg'arma

1936-yili Italiya armiyasi hozirgi Efiopiya poytaxti Addis-Abeba shahrini ishg'ol qiladi va markaziy bankdagi pul mablag'larini Italiya foydasiga musodara etadi. Buni qarang-ki, bankda oddiy qog'oz pullar bilan bir qatorda antiqa qadimiy pullar — ko'plab katta-katta hajmdagi tuz bo'laklari ham saqlanayotgan ekan.



1. Dastlabki bankirlar kim bo'lgan?
2. Qog'oz pullarning dastlabki ko'rinishi nimadan iborat bo'lgan?
3. Zargarlar qanday qilib qarz berib turish imkoniyatiga ega bo'lganlar?

## 2.2. Omonat va qarz

Qanday qilib jamg'arilsa, pul ko'payadi?

Bu savolga javobni bilasiz: — Agar pul banklarda saqlansa, u kun sayin ko'payib boradi.

Bankka topshirilgan pul — omonat, pul topshirgan shaxs esa omonatchi, deb ataladi.

“Banklar pulni qanday ko'paytiradi?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Hamma gap shundaki, bank nafaqat pullarni omonatchilardan saqlash

uchun oladi. Balki, bu pullarni unga muhtoj bo'lgan odamlarga qarzga ham beradi. Saqlash uchun olingan pullar bir joyda sarg'ayib yotsa, o'zidan o'zi ko'payib qolmaydi, albatta. Hatto saqlash xarajatlari tufayli zarar keltiradi. Lekin saqlanayotgan pullar boshqa kishiga qarzga berilsa, ular ishlay boshlaydi — qarz olgan odamlar uni ishlatib foyda ko'radi, bank esa bu foydadan ulush, ya'ni foiz oladi. Shu tariqa, pullar bankning bir eshigidan kirib, ikkinchi eshigidan yana chiqib turadi, ya'ni tinmay "ishlaydi". Shu jihatdan pullarni iqtisodiyotning qoni desak, banklarni pullarni doimiy harakatga keltirib turuvchi yurakka qiyoslash mumkin.



O'zbekistonda fuqarolarning bankdagi omonatlari qaytarilishi qonun bilan kafolatlangan.

O'tgan asrning 90-yillari oxirlaridagi MDH mamlakatlarining bir qanchasidagi bank inqirozlari aholining bank tizimiga ishonchini pasaytirib yubordi.

Fuqarolarning O'zbekiston banklaridagi omonatlarini himoyalash tuzilmasi yaratilishiga asos O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002-yil aprel oyida qabul qilingan "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonun bo'ldi. Respublikamizda ushbu qonun qabul qilinishining asosiy maqsadlari aholining ijtimoiy himoyasi, uning respublika bank tizimiga ishonchini ta'minlash va bank omonatlariga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb etish edi. Qonunda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 326-qaroriga binoan 2002-yilning 19 sentabrida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi.

*Manba: "BBB" gazetasi, 19.11.2005-y.*

1. *Ushbu Qonun qabul qilinishining ahamiyati va bu Qonun qabul qilinganidan keyin fuqarolar va banklar bir-birlari bilan munosabatlarini qay tariqa olib borishlari haqida fikringizni bayon qiling.*
2. *Omonatchilarning bank tizimiga bo'lgan ishonchlarining davlat moliyaviy tizimining barqarorligiga qanday ta'siri bor deb o'ylaysiz?*
3. *Siz o'zingizni omonatchi deb faraz qiling. Siz o'zingizga bank tanlayotganingizda bankning qaysi asosiy jihatlariga ahamiyat bergan bo'lar edingiz?*





*Soliq kodeksining 132- moddasi va 171-moddasiga binoan ham korxonalar, ham odamlar o'zlarining dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlaridan 10 % li stavka bilan soliq to'lashlari lozim. Dividend deganda aksiyalar va boshqa qimmatbaxo qog'ozlardan olgan daromadlar tushuniladi. Foizlar deganda esa banklarga qo'yilgan omonatlar bo'yicha olinadigan foiz daromadlari tushuniladi.*

Shunday qilib, bank qarz oluvchi kishidan qarz berib turganligi uchun topgan daromadidan bir qismini omonatchining puliga qo'shib qaytaradi. Uning qolgan qismi esa xizmat haqi sifatida bankda qoladi.

Buni quyidagi misolda tushuntiraylik.

Bankka ertalab fuqaro Aliyev kirib keldi va 1 000 000 so'm pulni saqlash uchun topshirdi. Bank omonatchi Aliyevga omonatini bir yildan so'ng 1 200 000 so'm qilib qaytaradigan bo'ldi.



Shu kuni fuqaro Valiyev bankdan 1 000 000 so'm qarz oldi. Qarz oluvchi Valiyev bu qarzni bir yildan so'ng 1 400 000 so'm qilib qaytaradigan bo'ldi.

Bir yildan so'ng bank Valiyev qaytarib bergan 1 400 000 so'mning 1 200 000 so'mini Aliyevga berdi. Natijada bank har ikkala mijozga ko'rsatgan xizmati uchun 200 000 so'm miqdorda foyda topdi.



Bank xursand, chunki 200 000 so'm foyda ko'rdi. Aliyev xursand, chunki 1 000 000 so'm puli 1 200 000 so'm bo'ldi.

Valiyev-chi?

Valiyev ham xursand, chunki u bankdan olgan puliga «hot-dog» pishiradigan uskuna sotib olib, bir yil ichida 2 000 000 so'm ishlab topdi, bankka 1 400 000 so'm qaytargandan so'ng esa 600 000 so'm foyda qildi va «hot-dog» pishiradigan uskunali bo'lib qoldi.



Agar Aliyev pulni bankka topshirmaganda, u ko'paymas edi. Bank Valiyevga qarz bermaganda, u ham 200 000 so'm daromaddan qolar edi. Va eng muhimi, Valiyev bankdan qarz olmaganda bir yil ish izlagan bo'lar edi. Holbuki, u qarz olib nafaqat o'zini o'zi daromad bilan ta'minladi, u pishirgan "hot-dog"lar qancha odamning ehtiyojini qondirdi, ya'ni jamiyatga xizmat qildi.



1. Nima sababdan pul jamg'ariladi?
2. Nima sababdan pulni bankda saqlaydilar?
3. Omonat nima? Omonatchi kim?
4. Bank qarzga beriladigan pulni qaerdan oladi?
5. Bank nimaning hisobidan foyda ko'radi?
6. Bankdan qarz olish yaxshimi?

### 2.3. Kredit va kredit foizi

Aytaylik, bir kichik korxonaga narxi 4 million turadigan to'quv dastgohini sotib olmoqchi. Lekin, uning bankdagi hisob varag'ida buncha pul mablag'i yo'q. Shunda, korxonaga o'ziga xizmat ko'rsatayotgan bankka qarz berib turish haqida murojaat qiladi.

Bank bilan korxonaga o'rtasida qarzni miqdori, qancha vaqtdan keyin qaytarilish muddati, qarz haqi va boshqa shartlar kelishib olinadi va shartnoma tuziladi.

Bank boshqa mijozlarining saqlanayotgan mablag'lari hisobidan bu korxonaga qarz beradi. Qarz bank tilida **kredit** deb ataladi (Lotinchada *credutum* – qarz ma'nosini anglatadi).



Yevropa qayta tiklash va rivojlanish banki o'zbek-turk to'qimachilik korxonasiga 8 mln. dollar ajratdi.

Yevropa qayta tiklash va rivojlanish banki "BAYTEKS TICARET" o'zbek-turk xususiy korxonasiga O'zbekistonda asosan eksport uchun to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy fabrika qurilishiga 8 mln. dollar kredit ajratdi. Besh yilga mo'ljallangan ushbu kredit Toshkentda quriladigan fabrikaning 29% xarajatlarini qoplaydi.

*Manba: "BVV" gazetasi, 10.11.2005-y.*

1. *Korxonaning bankdan kredit olishiga sabab nima?*
2. *Korxonaga kreditdan foydalanib qurgan fabrikasini ishlatib topgan foydasi kreditni to'lashga yetmay qolsa, qanday vaziyat tug'ilishi mumkin?*
3. *Ushbu kredit orqali qoplanmaydigan xarajatlarni korxonaga qaysi manbalardan olishi mumkin deb o'ylaysiz?*

Albatta, bank korxonaga qarz berib turganligi uchun korxonaga bankka qarz haqi to'laydi. Qarz haqi **kredit foizi** deb ataladi. Kredit foizi miqdori – yillik foiz stavkasiga qarab belgilanadi.

**Yillik foiz stavkasi** bir yil davomida qarzga olingan pulning necha foizi bank xizmat haqi sifatida berilishi kerakligini anglatadi.

Masalan, kichik korxonada bankdan 4 million so'mni bir yil muddatga, 20% yillik foiz stavkasi bilan olgan bo'lsin. Demak, korxonada bir yildan so'ng 4 million so'mni qaytarish bilan birga bankka qarz haqi sifatida olgan qarzining 20%, ya'ni

$$4\,000\,000 \cdot 0,2 = 800\,000 \text{ so'm miqdorida kredit foizi ham to'laydi.}$$

Agar bu qarzni ikki yilga olgan bo'lsa, kredit foizi miqdori ikki marta ko'p bo'ladi, ya'ni 1 600 000 so'mni tashkil qiladi va hokazo.

Umuman olganda, olingan qarz kredit miqdori —  $P$ , yillik foiz stavkasi —  $r$ , olingan qarzni qaytarish muddatini —  $t$  deb olsak, u holda kredit foizi miqdori  $I$  quyidagi formula yordamida topiladi:

$$I = P \cdot r \cdot t$$

Bankka jami qaytariladigan pul miqdori  $S$  esa,  
 $S = P + I$  formulaga ko'ra topiladi.

Aytaylik, "ZIYO" firmasi "SAVDOGARBANK"dan 1 000 000 so'mni yarim yil muddatga, 30% yillik stavkasi bilan olgan bo'lsin. Bu firma bankka

$$I = P \cdot r \cdot t = 1\,000\,000 \cdot 0,3 \cdot 0,5 = 1\,000\,000 \cdot 0,3 \cdot 0,5 = 150\,000 \text{ so'm}$$

kredit foizi to'lab, yarim yildan so'ng jami

$$S = P + I = 1\,000\,000 + 150\,000 = 1\,150\,000 \text{ so'm qaytaradi.}$$

Omonatchilarning bankka topshirgan pullari — omonati uchun ham banklar omonat foizi deb ataladigan haq to'laydi. Ularning miqdori ham yillik foiz stavkasi bilan belgilanadi.

Aytaylik, Burxonov bankka 20 000 so'm pulini, 20% yillik foiz stavkasi bilan bir yilga qo'ygan bo'lsin. Bir yildan so'ng bank unga

$$I = P \cdot r \cdot t = 20\,000 \cdot 20\% \cdot 1 = 20\,000 \cdot 0,2 = 4\,000 \text{ so'm}$$

miqdorida omonat haqi to'lab, 20 000 so'm pulini

$$S = P + I = 20\,000 + 4\,000 = 24\,000 \text{ so'm qilib qaytaradi.}$$

Yana shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, banklar qarz va omonat foiz miqdorlarini yana boshqa usullar bilan ham (masalan, oyma-oy, yoki yil o'tgan sayin foiz stavkasi ortib boradigan qilib) hisoblaydilar.



1. Kredit va kredit foizi nima?
2. Kredit shartnomasida nimalar ko'rsatilgan bo'ladi?
3. Yillik foiz stavkasi nima?
4. Kredit foiz miqdori qanday hisoblanadi?
5. Omonat foizi miqdori-chi?

## 2.4. Banklarning boshqa xizmat turlari

Bankni aholi va korxonalar omonatlarini saqlaydigan va ularga qarz berib turadigan muassasa, deb ta'riflashimiz mumkin. Kengroq ma'noda bank — aholi va korxonalarga pul bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot.

Bank ishi bilan shug'ullanuvchi kishilarni **bankirlar**, bank xizmatidan foydalanuvchilarni esa **bank mijozlari** deb atashadi.

Banklar mijozlarining omonatlarini saqlash va ularga qarz berish bilan cheklanmay, mijozlarining pul bilan bo'ladigan barcha **hisob-kitob va to'lov ishlarini** ham bajaradi, **chet el pullarini va qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish** bilan shug'ullanadi.

Quyidagi misolda bankning mijozlariga pul to'lash ishlaridagi xizmatini kuzataylik.

“Shohjahon” firmasi “Tadbirkorbank”ning mijozi hisoblanadi. “Usto” firmasiga esa “Ipoteka bank” xizmat ko'rsatadi. Bu firmalarning banklarida o'z hisob varaqalari ochilgan bo'lib, unda ularning pul mablag'lari haqida ma'lumotlar saqlanadi. “Shohjahon” firmasining hisob varag'ida 250000 so'm bo'lib, bu pulning 100000 so'miga “Usto” firmasidan mebel sotib olmoqchi. Buning uchun “Shohjahon” firmasi “Tadbirkorbank”ka 100000 so'm pulni “Usto” firmasining “Ipoteka bank”dagi hisob varag'iga o'tkazishni so'rab, xat bilan murojaat qilib topshiriq beradi. Shu kuniyoq bu pullar “Tadbirkorbank”dagi “Shohjahon” firmasi hisobidan, “Ipoteka bank”dagi “Usto” firmasining hisobiga o'tkaziladi. O'z bankidan so'rab bunga ishonch hosil qilgan “Usto” firmasi mebellarini yuklab “Shohjahon” firmasiga jo'natadi.



### Elektron hamyon

Telekommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan to'lov tizimlari bozorida yangi-yangi o'yinchilar paydo bo'lmoqda. Endilikda an'anaviy plastik kartochkalar qo'l telefoni va Internet bilan “hudud talashmoqda”. XXI asr boshida yuqori texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar oddiy qo'l telefoni yangi to'lov vositasi bo'la olishini ko'rib qolishdi. “Strategy Analytics” tadqiqot kompaniyasi baholashicha, o'tgan yili qo'l telefoni yordamida amalga oshirilgan savdo aylanmasi dunyo bo'yicha 8 mlrd. dollarga yetgan.





Yaponiyada uyali telefonning akkumulator batareyasiga birlashtirilgan mo'ljazgina moslama yordamida ko'p narsa xarid qilish mumkin. Buning uchun telefonni o'zingizga yoqib qolgan tovar yonida ushlab tursangiz bas. Qurilma tovar kodini o'qiydi, shundan so'ng xarid qilingan narsa sizniki.


*Manba: "Bank axborotnomasi" gazetasi, 9.03.2005 y.*

1. Yuqoridagi matnda keltirilgan faoliyatlarni amalga oshirishda banklarning qanday roli bo'lishi mumkin?

2. Keltirilgan qulayliklar undan foydalanuvchi shaxslarga, banklarga, savdo korxonalariga va aytilgan moslamalarni ishlab chiqaruvchilarga qanday naf keltirishi mumkin?

Ko'rib turganingizdek, bu to'lov xizmati naqd pulsiz — pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi. Xizmatning bunday turi hamma uchun ma'qul, chunki u xaridorni o'z bankidan pulni olib, sotuvchiga berishi, sotuvchini esa bu pullarni o'z bankiga topshirishi bilan bog'liq ishlardan ozod qiladi.

Banklar mijozlariga qulaylik yaratish maqsadida ularga elektron kredit kartochkalari ham beradi. Bu plastik kartochkalarda, xuddi kompyuter disketalariga o'xshab, kartochka egasi haqida ma'lumotlar, pul mablag'ining miqdori, qayerda va qaysi bankdagi hisob varag'ida saqlanayotgani yozilgan bo'ladi. Tovar sotib olinayotganda bu kartochka maxsus elektron moslamaga tiqilib, kimga qancha miqdordagi mablag',



**Naqd pulsiz pul o'tkazish.**

qaysi bankdagi hisob varag'iga o'tkazish kerakligi haqidagi ma'lumot kiritiladi. Shu kiritilgan ma'lumotga ko'ra, kartochkada ko'rsatilgan hisob varag'idan aytilgan summa chegirilib, sotuvchining bankdagi tegishli hisob varag'iga o'tkaziladi.

Shuningdek, banklar naqd pul beradigan bankomatlar orqali ham xizmat ko'rsatadi. Bu bankomatga kartochka tiqilib, kerakli pul summasi haqidagi ma'lumot kiritilsa, bankomat darhol shuncha naqd pulni chiqarib beradi.

Bank xizmatining bunday turidan foydalanilganda, naqd pulni yonda olib yurish zarurati qolmaydi. Chunki istalgan payt ko'chalarda va ko'plab muassasalarda (aeroport, vokzal va hokazolarda) o'rnatilgan bunday avtomatlardan zarur naqd pulni olib ishlatish mumkin bo'ladi.



### **O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki**

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, qisqacha Milliy bank, mijozlari uchun eng foydali omonat shartlari asosida ish yuritadi va foyda olishni kafolatlab qolmasdan, bankning istalgan bo'limi yoki filialida valuta omonati ochish imkonini beradi. O'zbekistonning barcha viloyatlari, yirik markazlarida hamda katta shahar va tumanlarda bankning bo'lim va filiallari bor.

Ishbilarmonlik va moliya olamidagi eng nufuzli nashrlardan biri bo'lgan "The Banker" jurnali bergan bahoga ko'ra, Milliy bank jahondagi mingta eng katta va obro'li bank muassasalari qatoriga kiritilgan. Milliy bank ana shu muassasalar ichida 503-o'rinni egallagan bo'lib, dunyodagi eng ishonchli banklarning biri deb topilgan.



1. Bankning qanday vazifalarini bilasiz?
2. Naqd pulsiz pul o'tkazish jarayonini tushuntirib bering.
3. Elektron plastik kartochkalardan qanday foydalaniladi?
4. Naqd pul bankomatlari haqida nima bilasiz?



## ISHLAB CHIQRISH

### 3.1. Ishlab chiqarish omillari

Iqtisodiyot ishlab chiqarishdan boshlanadi. Odamlar uchun zarur bo'lgan turli tuman ne'matlar, narsa va buyumlar tabiatda tayyor holda uchramaydi. Ularni odamlarning o'zlari yaratishlari, ishlab chiqarishlari lozim bo'ladi. Shu sabab ishlab chiqarish odamlar hayotida muhim o'rin tutib, iqtisodiyotning poydevorini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish uchun resurslar kerak bo'ladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslarga faqat manba sifatida emas, balki uni harakatga keltiruvchi, unga ta'sir etuvchi omil sifatida ham qaraladi. Shu sababli ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarni ishlab chiqarish omillari deb ham ataladi.

Ma'lumki, resurslar tabiiy, mehnat va kapital resurslari ko'rinishida bo'ladi. Demak, ishlab chiqarishning omillari ham asosan tabiiy, mehnat va kapital ko'rinishidagi turlarga bo'linadi.

Keyingi paytlarda ishlab chiqarishning tabiiy, mehnat va kapital omillari qatoriga to'rtinchi omil — odamlarning ishlab chiqarishni uyushtirishi va tashkil qilishi bilan bog'liq faoliyatlari — tadbirkorlik ham kiritilmoqda.

Qurilish uchun eng zarur bo'lgan sement ishlab chiqarishni tashkil qilish misolida ana shu omillarni aniqlaylik. Ma'lumki, sement ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun, birinchidan, tabiiy resurs — sement olinadigan tog'




jinsi bo'lishi kerak. Demak, tabiiy resurs bo'lgan bunday xomashyoning borligi ishlab chiqarishga sababchi, uning omiliga aylanadi.

Ikkinchidan, sement ishlab chiqarish uchun mehnat resurslari — ishchi kuchi bo'lishi lozim. Zero, mehnat omili — odamlarsiz hech narsa qilib bo'lmaydi.

Uchinchidan, tog' jinrlarini qayta ishlab sement tayyorlaydigan asbob-uskuna, bino va inshootlar ham zarur. Bu resurslarning borligi sement ishlab chiqarishning kapital omiliga aylanadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida sanalgan har uch omil o'zicha alohida-alohida mavjud bo'lmay, ular o'zaro birlashsagina sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin.



Ana shu omillarni o'zaro birlashtirish to'rtinchi omil — tadbirkorlik vositasida amalga oshiriladi. Tadbirkor sement ishlab chiqarish imkoniyatlarini hammadan oldin ko'rib, hisob-kitob qilib tashabbusni qo'lga oladi. Bu ishni amalga oshirish uchun har uch omilni birlashtiradi. Buning uchun u bor resurslarni jalb etadi, kuch-g'ayrati, bilimi va ishbilarmonlik iqtidorini ishga soladi. Oxir-oqibat, uning tadbirkorligi sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishining sababchisi — omili bo'ladi.

Demak, ishlab chiqarish tabiiy, mehnat, kapital va tadbirkorlik omillarining birlashuvidan yuzaga kelar ekan.



1. Ishlab chiqarish omillari deb nimaga aytiladi?
2. Ishlab chiqarish omillariga nimalar kiradi?
3. Tadbirkorlik nima sababdan ishlab chiqarish omili hisoblanadi?
4. Ishlab chiqarish omillari alohida-alohida mavjud bo'lgani holda natija berishi mumkinmi?
5. Sement ishlab chiqarish korxonasi misolida ishlab chiqarish omillarini tushuntirib bering.



### 3.2. Mehnat unumdorligi

Ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshiriladi. Korxonalar yer, bino, asbob-uskuna, dastgohlardan iborat asosiy vositalar va unda ishlovchi odamlardan tashkil topadi. Korxonaning bir «darvozasidan» xomashyo deb ataluvchi ne'matlar kirib keladi. Korxonada ularga ishchilar asbob-uskuna va dastgohlar yordamida ishlov beradilar. Shundan so'ng, korxonaning ikkinchi «darvozasidan» tayyor mahsulot chiqib ketadi.

Xomashyo



Korxonada



Mahsulot



Har bir korxonaning maqsadi ko'proq sifatli mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Ma'lumki, qancha ko'p xomashyo ishlatilsa, shuncha ko'p mahsulot olinadi.

Shu bilan birga, mahsulotning ko'p yoki kam ishlab chiqarilishi, dastgohlar va ularda ishlayotgan ishchilarning tez yoki sekin ishlashiga ham bog'liq.

Ishchining tez yoki sekin ishlayotgani, uning bir soatda ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga qarab aniqlanadi va bu ishchining mehnat unumdorligi deb ataladi.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini sarflangan vaqtga bo'lib topiladi.

Faraz qilaylik, bir ishchi 8 soat davomida 320 dona mahsulot ishlab chiqargan. Ikkinchi ishchi esa 6 soat davomida 270 dona xuddi o'sha mahsulotdan ishlab chiqargan bo'lsin.

Qaysi ishchining ishlash sur'ati, ya'ni mehnat unumdorligi yuqori? Buni aniqlash uchun, har bir ishchi ishlab chiqargan mahsulot miqdorini bu mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarflagan vaqtiga bo'lamiz.

Natijada, birinchi ishchining mehnat unumdorligi  
 $320 \text{ dona} : 8 \text{ soat} = 40 \text{ dona}$ ,  
 ikkinchi ishchining mehnat unumdorligi esa  
 $270 \text{ dona} : 6 \text{ soat} = 45 \text{ dona}$  ekanligini aniqlaymiz.

Ikkinchi ishchi birinchi ishchiga qaraganda tezroq, unumliroq ishlab, bir soatda undan ko'proq mahsulot ishlab chiqargan. Demak, uning mehnat unumdorligi yuqori ekan.

Agar har bir mahsulotni yaratish jarayonida bitta emas bir nechta ishchi qatnashayotgan bo'lsa, ularning mehnat unumdorligi quyidagicha (ikki qadamda) topiladi: dastlab mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarflagan hamda ishchilarning umumiy vaqti topiladi. So'ng ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori shu umumiy vaqtga bo'linadi.

### 1-qadam

$$\text{Sarflangan umumiy vaqt} = \text{Ishchilar soni} \cdot \text{Har bir ishchi sarflagan vaqt}$$

### 2-qadam

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \frac{\text{Mahsulot miqdori}}{\text{Sarflangan umumiy vaqt}}$$

Masalan, korxonada 20 ta ishchi 8 soat davomida 3200 dona piyola ishlab chiqargan bo'lsin. Ishchilarning mehnat unumdorligini topish uchun, oldin ularning sarflagan umumiy vaqtini topamiz:

$$\text{Sarflangan umumiy vaqt} = \text{Ishchilar soni} \cdot \text{Har bir ishchi sarflagan vaqt} =$$

$$= 20 \cdot 8 = 160 \text{ soat.}$$

So'ng esa yuqoridagi qoidaga ko'ra:

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \text{Mahsulot miqdori} \cdot \text{Sarflangan umumiy vaqt} =$$

= 320 : 160 = 20 dona piyola degan natija olamiz.

Shunday qilib, mehnat unumdorligi ishchi yoki korxonaning yaxshi yoki yomon ishlayotganini ko'rsatuvchi "taroz" ekan.



"O'zKodji" O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi tobora ortib bormoqda. Andijon viloyatining Xonobod shahrida joylashgan ushbu qo'shma korxonada 2002-yilning avgustida foydalanishga topshirilgan edi. U "O'zDEUavto" uchun ilgari Polsha, Vengriya va boshqa mamlakatlardan keltirilgan bog'ichlar va simlarni yetkazib bermoqda.

Korxonada 400 ga yaqin kishi mehnat qiladi. Ularning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu yerda ishchilar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan, oylik maosh ham ularni qoniqtirmoqda. Har ikki smenada ishlaydigan ishchilar bepul ovqat va yo'l chiptalari bilan ta'minlangan. Tibbiy punkt, yuvinish va dam olish xonalari mavjud.

Bularning barchasi mehnat unumdorligini oshirishga yordam bermoqda. 2003-yilda sotilgan mahsulot hajmi 700 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda bu ko'rsatkich 7 million 100 ming AQSH dollariga yetdi. Joriy yilning birinchi choragida "O'zDEUavto" qo'shma korxonasiga qiymati 2 million 665 ming AQSH dollarilik mahsulot yetkazib berildi.

*Manba: "Mulkdor" gazetasi, 10.06.2005-y.*

1. Qo'shma korxonadagi ishchilarning mehnat unumdorligi:

- 2003-yilda;
- 2004-yilda;
- 2005-yilning 1-choragida qancha bo'lganini hisoblang.

2. Mehnat unumdorligi bo'yicha

- 2004-yilni 2003-yil bilan;
- 2005-yilning 1-choragini 2004-yilning 1-choragi bilan taqqoslang.



Ko'proq sifatli mahsulot ishlab chiqarish qanday asbob-uskuna yoki dastgohlardan, texnikadan foydalanayotganligiga va qanday usul — texnologiyaga tayanib ish tutilayotganligiga ham bog'liq.

Masalan, yerni ikki xil texnika yordamida, omoch yoki traktorda haydash mumkin. Albatta, yer zamonaviy texnika — traktor bilan haydalsa ish unumliroq va sifatliroq bo'ladi.

Nonni tandirda ikki xil texnologiya yordamida pishirish mumkin. Biri o'tindan foydalanib, ikkinchisi gazdan foydalanib. Albatta, ikkinchi texnologiya yordamida ish tutilsa, ya'ni non gazda pishirilsa, ish tezroq, sifatliroq, unumliroq bo'ladi. Shu bilan birga gazda non pishirish o'zining qulayligi, odamdan kam mehnat talab qilishi bilan ham ajralib turadi.



Xullas, fan va texnika taraqqiyoti natijasida eskirgan texnika va texnologiyalar o'rnini ularga qaraganda ancha qulay, unumli, zamonaviy bo'lgan yangi texnika va texnologiyalar egallab boradi.



1. Ishlab chiqarish qayerda amalga oshiriladi?
2. Korxonaga asosan kimlardan (nimalardan) tashkil topadi?
3. Korxonaga nima kirib, undan nima chiqib ketadi?
4. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori nimalarga bog'liq?
5. Ishchining mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?
6. Mehnat unumdorligi qanday yo'l bilan hisoblanadi?
7. Texnologiya deganda nimani tushunasiz?
8. Mehnat unumdorligi yana nimalarga bog'liq?



### 3.3. Mehnat taqsimoti va kasblar

Biror korxonaga borib mahsulot yaratish jarayonini kuzatganmisiz? Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, xomashyoga ishlov berish jarayoni ishchilar orasida taqsimlangan bo'lib, har bir ishchi o'ziga ajratilgan ishnigina bajaradi. Masalan, konserva zavodidagi murabbo tayyorlash jarayonini oladigan bo'lsak: ishchilarning biri mevalarni qabul qilish bilan, ikkinchisi yuvish bilan, uchinchisi qozonga joylash bilan, to'rtinchisi qaynatish bilan, beshinchisi murabboni idishlarga solish bilan, oltinchisi tayyor mahsulotlarni omborga joylash bilan mashg'ul ekanligini ko'ramiz.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini bunday tashkil qilish, ya'ni ishni ishchilarga bunday taqsimlab berish o'z nomi bilan **mehnat taqsimoti** deyiladi.



Mehnat taqsimoti joriy qilingan joyda har bir ishchiga uning bilimi, mahorati va imkoniyatiga qarab ish bo'lib beriladi.

Nega shunday qilinadi deb o'ylaysiz? Buning tagida ishni tezroq bajarish, ko'proq, sifatliroq mahsulot ishlab chiqarish, ya'ni mehnat unumdorligini oshirish maqsadi yotadi.

Mehnat taqsimoti natijasida odamlar turli xil kasblar bo'yicha **ixtisoslashadi**. Birgina qurilish korxonasida duradgor, g'isht teruvchi, pardozlovchi, bo'yoqchi, kranchi, elektrchi kabi o'nlab kasb egalarini uchratish mumkin.

## Hunar, hunardan — unar

Kambag'al fermerning o'g'li Genri Ford texnikaga juda erta qiziqib qolgan; 13 yoshida qo'shnisining soatini bepul tuzatib bergan ekan. Qo'lga uchragan narsalami "kavlashga" tushar ekan, hatto undan otasining traktori ham tinch qolmagan ekan. Ford 25 yoshida otsiz boshqariladigan yumshoq



yopqichli fayton yasadi. Ikkinchi faytonini yasashga puli yetmasdan, birinchi faytonini sotishga majbur bo'ladi. Lekin ikkinchisi birinчисiga qaraganda ancha mukammal bo'lgan. Bu antiqa fayton — avtomobil edi. Uni yana ham qimmatroq sotadi. Shu zaylda 15 yil o'tdi va avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Ford" kompaniyasi dunyoga keldi. Dastlabki paytlarda sutkasiga 7 dona avtomobil chiqargan kompaniyada XX asrning 20-yillariga kelib ishlab chiqarishning



konveyer usuli kashf qilindi. Buning natijasida mehnat unumdorligi keskin oshib u minutiga 4 ta avtomobil chiqaradigan mashhur va dunyodagi eng kuchli kompaniyalardan biriga aylandi. 1992-yilda "Ford-motor" kompaniyasining foydasi — 100 million dollarga yetdi.



1. Mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
2. Nima sababdan odamlar orasida mehnat taqsimoti vujudga kelgan?
3. Kasblar qanday paydo bo'lgan?
4. Qurilishda band bo'lgan qanday kasb egalarini bilasiz?
5. Nima sababdan yangi kasblar paydo bo'ladi?

### 3.4. Soha va tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuv



Ishlab chiqarishning taraqqiyoti natijasida mahsulot yaratish jarayoni ham odatda murakkablashib boradi. Bir kun kelib bitta korxonada miqyosida ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarishning iloji bo'lmay qoladi. Shu sababli korxonalar o'rtasida bu mahsulotni yaratish jarayonining bosqichlari, qismlari o'zaro taqsimlab olinadi. Natijada korxonalar o'rtasida mehnat taqsimoti yuz berib, ular bir butun mahsulotni emas, balki uning ma'lum bir qismini ishlab chiqarishga moslashadi, ya'ni ixtisoslashadi.

Shu tariqa bir necha korxonalardan iborat, muayyan mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoq vujudga keladi. Misol tariqasida, avtomobil ishlab chiqarishni olaylik. Ma'lumki, avtomobil yuzdan ortiq katta-kichik detallar, butlovchi qismlardan tashkil topgan. Uning bitta detali, masalan, rezina g'ildiraklari bir korxonada ishlab chiqarilsa, oynasi ikkinchi korxonada, motori esa uchinchi korxonada tayyorlanadi va hokazo. Xullas, avtomobil qismlarini ishlab chiqarish bilan o'nlab korxonalar shug'ullanadi. Oxiri yig'uv korxonasida bu qismlardan avtomobil tayyor holga keltiriladi. Shu tariqa bu korxonalar birgalikda avtomobil ishlab chiqarish tarmog'ini tashkil etadi va har biri ma'lum detallar yoki butlovchi qismlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

Korxonalarning ma'lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha bitta tarmoqqa birlashuvi ham oxir-oqibat mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z navbatida bir-biriga yaqin turdagi mahsulot ishlab chiqarayotgan tarmoqlar birlashib, ishlab chiqarishning yanada yirikroq tarmoqlarini, ular ham o'z navbatida birlashib ishlab chiqarish sohaslarini tashkil qiladi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik tarmoqlari birgalikda — qishloq xo'jaligi sohasini, avtomobilsozlik, traktorsozlik, samolyotsozlik, dastgohsozlik birgalikda — mashinasozlik sohasini tashkil qiladi. Ishlab



chiqarishning asosiy sohalariga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo, maishiy xizmat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari kiradi.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish sohalarida qandaydir moddiy narsalar, ne'matlar yaratilsa, transport, savdo, maishiy xizmat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida turli-tuman xizmatlar ko'rsatiladi.



### Shakar bozorida tanqislik

Ma'lumotlarga qaraganda jahon bo'yicha shakar tanqisligi 3 million tonnaga yetishi mumkin ekan.

Shakar bozorida faoliyat yurituvchi yirik brokerlik kompaniyasi "Tszarnikov shugar" (Czarnikow Sugar) tarqatgan xabarlariga ko'ra, Braziliyada kutilganidan ancha kam hajmda shakar ishlab chiqarilgani bois ushbu holat yuz berishi kutilayapti.

"Braziliyaning shimoliy-sharqidagi quruq hamda markaziy va janubiy qismidagi nam havo hosildorlikning kamayishiga olib keldi", dedi mazkur kompaniyaning tahlil bo'limi boshlig'i Tobi Koen.

Mutaxassislarning fikricha, shakar bozorida o'zgarishlarga har bir mamlakatning ichki zahiralari ham ta'sir etadi. Bu zahiralalar hajmi esa har yili o'zgarib turadi.

*Manba: Gazeta.ru*

1. *Sizning fikringizcha shakar ishlab chiqarish ishlab chiqarishning qaysi sohasiga tegishli?*
2. *Nega Braziliyada shakar ishlab chiqarish hajmi pasaysa, jahon bo'yicha shakar tanqisligi yuzaga keladi?*

Ba'zida shart-sharoit, an'analar, mahalliy zarurat tufayli bir butun hudud, hatto mamlakatlar ham, mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga moslashadi (ixtisoslashadi).

Masalan, tabiiy sharoit qo'l kelganligi uchun, O'zbekistonda ko'proq paxta, Braziliyada — kofe, Hindistonda — choy yetishtiriladi. Quvait va Saudiya Arabistonida neft zaxiralarning ko'p bo'lishi bu davlatlar iqtisodiyotining neft mahsulotlari ishlab chiqarishga moslashuviga sabab bo'lgan. Yaponiyada esa aksincha, tabiiy resurslar va foydali qazilmalarning deyarli yo'qligi bu davlat iqtisodiyotini ko'proq aqliy mehnat resurslarini talab qiladigan murakkab elektronika va avtomobil sanoatiga oid mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashuviga olib keldi.





## Yangi Zelandiyaning yangi soliq imtiyozi

Qishloq xo'jaligi ancha rivojlangan mamlakat hisoblanmish Yangi Zelandiyada hukumat qishloq xo'jalik korxonalaridan daromad solig'ini kamaytirmoqchi. Tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko'ra ushbu imtiyoz orol mamlakatlarning budjeti uchun yiliga



1,5 mlrd Yangi Zelandiya dollariga "tushdi". Ammo oldingi yillari ushbu soha korxonalariga solingan soliq miqdorining ancha katta bo'lganini hisobga olgan holda hukumat shunday imtiyozlarni taqdim etishga ahd qildi.

*Manba: "Newsweek.com."*

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik korxonalari uchun soddalashtirilgan holda birgina yagona yer solig'i joriy etilgan. Shunda ham yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari ikki yil muddatga yagona yer solig'idan ozod etiladi.



1. Nima sababdan mehnat taqsimoti korxonalarda ham vujudga keladi?
2. Korxonalarning ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
3. Mahsulot ishlab chiqarish tarmog'i nima?
4. Avtomobil ishlab chiqarish tarmog'ini tahlil qilib bering.
5. Korxonalarning tarmoqlarga birlashuvi bilan mehnat unumdorligi orasida qanday bog'lanish bor?
6. Ishlab chiqarishning qanday sohalarini bilasiz?
7. Qaysi sohalarida moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi?
8. Qaysi sohalarida xizmatlar ko'rsatiladi?
9. Muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qanday hudud va mamlakatlarni bilasiz?

### 3.5. Korxonalarni boshqarish. Menejment

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi har qanday tashkilot korxonaga deb ataladi. Siz bilgan zavod va fabrikalar, qurilish boshqarmasi, avtomobil parki va ta'mirlash ustoxonalari, jamoa va fermer xo'jaliklari, do'kon va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, universitet, kollej, litsey va maktablar, birja va banklar, dam olish uylari, kasalxonalar va bolalar bog'chalari — bularning hamma-hammasi korxonaga deb atalishi mumkin. Chunki ularda nimadir ishlab chiqariladi yoki qandaydir xizmat ko'rsatiladi.

Korxonada tovar ishlab chiqarishni amalga oshirish murakkab va serqirra jarayon bo'lib, u oqilona **boshqarishni** taqozo etadi.

Ma'lumki, korxonada tovar ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi, bino va asbob-uskunalar, xomashyo va materiallar, turli xil ma'lumotlar va pul mablag'lari zarur bo'ladi.

Xo'sh qancha ishchi kuchi, qancha va qanday xomashyo va materiallar kerak? Qaysi asbob-uskunalardan foydalangan ma'qul? Ishlab chiqarishni qaysi texnologiya bo'yicha yuritgan yaxshiroq? Bularning hammasi uchun qancha pul mablag'lari kerak?

Ishlab chiqarish jarayonida bu va bunga o'xshash o'nlab savollar tug'iladi, ularni yechish ancha murakkab bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonini boshqarish lozim bo'ladi.

Korxonada tovar ishlab chiqarishni boshqarish jarayonini **menejment**, bu ish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni **menejerlar** deb atashadi.

Korxonada menejerlar odatda bir nechta bo'lib, ulardan biri bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshqarsa, biri xomashyo resurslari va materiallar ta'minotini boshqaradi. Biri moliyaviy pul mablag'lar oqimini boshqarsa, biri mahsulotni sotish va reklamani boshqaradi. Yana biri mahsulot sifati va ishlab chiqarish texnologiyasini boshqarsa, boshqa biri korxonaga xodimlarini boshqaradi va hokazo.

Bozorni o'rganish, narxlarni shakllantirish, mahsulotni sotish bilan bog'liq ishlarni jamlab, bitta nom bilan **marketing** deb atashadi. Bunday

zamonaviy bozorshunoslar — marketing bilan shug'ullanuvchi, menejerlarning faoliyati, firmalar o'rtasidagi raqobat sharoitida korxonaning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.



**MENEJER**

**MENEJMENT**



Bu o'rinda to'g'ri tanlangan, vaqtida o'tkazilgan **reklamani**ng o'rni ham beqiyosdir.

Menejmentning — menejerlarning birgalikdagi xatti-harakati, oxir-oqibat, korxonani oqilona boshqarishga, ishlab chiqarish resurslaridan tejimli foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Menejer qaysi sohani boshqarmasin, u avvalo odamlar bilan ishlaydi, ularni boshqaradi. Menejerning qo'l ostidagi xodimlar bilan o'zaro munosabati, ular bilan muomalasi umumiy ish natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishning umumiy muvaffaqiyati oxir oqibat menejer bilan xodimlar orasidagi insoniy munosabatlarga borib taqaladi.



1. Korxonada deb nimaga aytiladi?
2. Turli xil korxonalariga misollar keltiring.
3. Korxonada ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun qanday ishlab chiqarish resurslari kerak bo'ladi?
4. Menejment nima? Menejerlar kim?
5. Korxonada menejerlar qanday sohalarni boshqaradi?
6. Marketing nima?
7. Reklamadan qanday maqsad ko'zlanadi?



## IV BOB



## EKOLOGIYA

### 4.1. Ekologiya nima?

Sizga tabiatshunoslik va botanika darslaridan ma'lumki, tabiatdagi hamma narsa bir-biri bilan uzviy bog'liq va qat'iy muvozanatda bo'ladi. Misol uchun yuqoridagi rasimga e'tibor beraylik. Unda hamma narsa bir-biriga bog'liq o'zaro muvozanatda: yer, havo, suv, quyosh nuri hisobiga maysalar yam-yashil bo'lib o'sadi; o't-o'lanlar va daraxtlar tanasi, ildizi



va mevasi hisobiga hasharotlar tirik-chilik qiladi; uchib yurgan qushlar esa hasharotlar bilan oziqlanishadi; shu tufayli hasharotlar daraxtlarni yeb bitiradigan darajada ko'payib ketmaydi; daraxtlar o'z navbatida havoni tozalab, hamma uchun zarur kislorod ishlab chiqaradi, ham qor suvlarini yig'ishga xizmat qilib chashmalar qurib qolmasligini ta'minlaydi va

hokazo. Bu zanjirni yana istalgancha davom ettirishimiz mumkin. Ko'rib turganingizdek, tabiatning kichik bir parchasida ham shuncha o'zaro aloqadorlik, o'zaro bog'liqlik va muvozanat mavjud.

Afsuski, bu muvozanat ba'zi-ba'zida turli sabablarga ko'ra buzilib turadi. Tabiat shunday yaralganki, undagi muvozanatning buzilishi kichikroq miqyosda va kichik vaqt oralig'ida bo'lsa, u o'z-o'zini «davolab»



### Yana Orol muammosi mavzusida ...

O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya va Yevropaning 50 mamlakatidan Orol muammosini hal etish ustida ish olib borayotgan olimlar, Yangi mustaqil davlatlar olimlarini qo'llab-quvvatlash xalqaro assotsiatsiyasi (INTAS) ning "Orol dengizi basseyni" dasturini amalga oshirishga bag'ishlangan majlisda ishtirok etdilar. Majlis Buxoroda 4—8 aprelda bo'lib o'tdi.

*Manba: AA "UzReport"*

1. Orol muammosi bu darajada ko'p mamlakatlarni qiziqtirishining sababi nimada deb o'ylaysiz?

2. Agar Orol muammosi vaqtida hal qilinmasa u qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

muvozanatni yana qayta tiklay oladi. Lekin tabiatni buzuvchi ta'sir katta miqyosda yoki uzoq muddat davomida bo'lsa, uning asorati tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonga xomashyo bazasi sifatida qaralib, Respublika qishloq xo'jaligida paxta monopoliyasi siyosati yuritilib, Orol havzasidagi ekologik vaziyatga e'tibor berilmadi.

Bu esa, o'z navbatida Orol dengizidagi suv miqdorining kamayishiga sabab bo'ldi. Natijada dengiz sayozlashib, qirg'oqlari o'nlab kilometr ichkariga chekindi. Dengizdagi suvning kamayishi oqibatida uning sho'rik darajasi 3 baravar oshib, hayot uchun yaroqsiz holga keldi va dengizda yashagan ko'plab baliq va hayvonlar nobud bo'ldi, ayrim baliq turlari qirilib ketdi. Baliqchilik sohasi ham yopildi.

Iqtisodiyot paydo bo'libdiki, bunday muammolar bilan inson to'qnash keladi. Ana shu muammolarning yechimi baribir asosan davlat "zimasida" bo'ladi. Xo'sh, buning uchun davlat mablag'ni qayerdan oladi? Davlat bunday maqsadlarga sarflanuvchi mablag'larni o'z faoliyati bilan ekologiyaga ta'sir etuvchi odamlar, korxonalar va tashkilotlarning o'zlaridan, masalan soliq ko'rinishida oladi. Keyingi darsda ana shu kabi soliqdan bir nechtasi haqida bilib olasiz.





Qadimiy Hindistonning iqtisodiy dunyoqarashi ifodalangan "Artxa-shastra" asarida tabiatni muhofaza qilishga katta e'tibor berilgan. Xususan, belgilangan soliqlar orqali ham bu narsaga erishishga harakat qilingan. Jumladan unda:

— Yerga munosabat alohida ta'kidlangan, ya'ni yer katta boylik ekanligi, undan to'g'ri foydalanish, yerga ishlov bermagan, uni qarovsiz qoldirgan shaxslardan ekin yerlarni tortib olish, madaniylashmagan, o'zlashtirilmagan yerlarga ishlov bergan, yerga "jon bergan" kishilarga soliqlardan imtiyozlar berilishi;

— Yer osti boyliklarini qazib olish, konlardan foydalanishda soliq ijara usulini qo'llash, konlarda soliq to'lamagan, o'g'irlik qilgan va boshqa gunohkorlarni ishlatish yo'lga qo'yilganligi ta'kidlangan.



1. Tabiatdagi muvozanatni o'zingiz yashaydigan muhit misolida tushuntiring
2. Tabiat "o'zini-o'zi davolaydi" deganda nimani tushunasiz?
3. Suv toshqinlari, dovullar, qurg'oqchiliklar nimaning oqibatida yuz berishi mumkin?
4. Ming yillardan beri yer yuzida yashab kelayotgan odamzod oldida nima uchun bugunga kelib ekologik muammolar o'ta dolzarb bo'lib qoldi?
5. Ekologiya nima?
6. Iqtisodiyot va ekologiyaning umumiy jihatlari va qarama-qarshiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

## 4.2. Suv manbalaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv har qanday mamlakat uchun asosiy boyliklardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida suv alohida qadr-qimmatga ega. Chunki mamlakatimizda qishloq xo'jaligining rivojlanganligi sababli sug'oriluvchi yerlar juda ko'p.

Suvni asrab-avaylash, undan tejamkorlik bilan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida davlatimiz tomonidan soliqning alohida bir turi amalga kiritilgan. Ushbu soliq "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi



qonunga ko'ra 1998-yildan boshlab joriy etildi va "suv resurslaridan foydalanganlik uchun" deya nom berildi.

Suv manbalaridan foydalanuvchi har kim, xoh yuridik, xoh jismoniy shaxs bo'lishidan qat'i nazar ushbu soliqni to'lashi lozim. Suv manbalari ikki xil – yer osti va yer usti suv manbalaridan iborat.

Yer osti manbalari — quduqlar, zovurlar, yerosti kanallaridan iborat. Yer usti manbalari esa — daryo, ko'l suv omborlari, kanal va hovuzlar va turli xil yer ustidagi havzalardan iborat bo'ladi.



### Eng bebaho ne'mat

Dunyoda aholi sonining tez o'sishi va urbanizatsiya jarayoni, sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi ekinlari maydonining, asosan sug'oriladigan yerlarning kengayishi natijasida chuchuk suvga bo'lgan talab ortib, suv havzalari ifloslanib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, suv resurslaridan foydalanishning yangi-yangi yo'llarini zudlik bilan izlab topish, sifatini tekshirish ustidan qattiq nazorat o'rnatish lozim.

Suv resurslarini toza saqlab, ularni muhofaza qilishni takomillashtirish uchun sug'orishda iflos chiqindi suvlardan foydalanishga o'tish muhim ahamiyatga ega. Bunda chiqindi iflos suvning tarkibiga qarab, joyning tabiiy geografik sharoitini (tuproq tarkibi, relyefi, gidrologik xususiyatlari va boshqalarni) hisobga olish; qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda kimyoviy o'g'itlar ishtirokini kamaytirish; suv havzalarining ifloslanishining oldini olish; zovur suvlaridan oqilona foydalanish; chorvachilik komplekslari va fermalardan chiqqan iflos suvlar va go'nglarning suv havzalariga tushishiga mutlaqo chek qo'yish kerak.

*Manba: "Mulkdor" gazetasi, 10.06.2005 y.*

1. Matnda berilgan ma'lumotlardan tashqari chuchuk suv muammosini yechish bo'yicha yana qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim deb o'ylaysiz?

2. Chuchuk suvdan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha siz shaxsan o'zingiz nimalarga e'tibor berishingiz lozim deb o'ylaysiz?

Quyida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning 2008-yilgi stavkalari berilgan.

### Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari (2008-yil)

Ko'rsatkichlar	1 kub.metr uchun stavka (so'm)	
	Yerusti suv resurslari manbalari	Yerosti suv resurslari manbalari
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	17,3	22,0
2. Elektrostansiyalar	5,0	7,4
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	9,5	12,3
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	0,85	1,05

Mazkur soliqni to'lashdan quyidagi korxonalar va tashkilotlar ozod etiladi:

- faqat davlat hisobidan moliyalanuvchi notijorat korxonalar, tashkilotlar;
- xalqaro va xayriya birlashmalari;
- diniy muassasalar;
- sog'liqni saqlash muassasalari;
- nogironlar tashkilotlari.



1. Suv va yerosti resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima?
2. Nima uchun yerusti va yerosti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari eng past qilib belgilangan?
3. Elektrostansiyalar suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq to'laydimi?
4. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliqdan ozod etiladi?

### 4.3. Tabiatni muhofaza qilish — hammaning burchi

Avvalgi paragraflarda ko'rdikki, insoniyatning iqtisodiy sohadagi faoliyati natijasida ekologik muammolar yuzaga kelar ekan. Xo'sh, endi bir o'ylab ko'raylik, oxir-oqibat insoniyatning iqtisodiy faoliyati natijasida oladigan foydasi, ana shu faoliyat yuzaga keltirgan ekologik zararning o'rnini qoplashga ketadigan xarajatlardan ko'pmi yoki ozmi? Albatta, agar yaxshilab hisob-kitob qilinsa foydadan ko'ra zarar ko'p bo'lib chiqadi. U holda hech qanday iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanmaslik kerak ekan-da? Yo'q, albatta. Iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish kerak, lekin bu faoliyat keltirib chiqaradigan ekologik zararning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish kerak.

Bu ish bilan asosan mahsus davlat nazorat organlari shug'ullanadi. Har bir davlatda atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar ko'riladi, jumladan qonunlar qabul qilinadi.

Masalan, zavod va fabrika mo'rilariga zaharli moddalarni tutib qoladigan, havoni tozalaydigan moslamalar o'rnatish, oqova suvlarni daryolarga oqizishni ta'qiqlash kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shunday bo'lsada, ayrim uzoqni ko'ra olmaydigan korxonalar va firmalar faqat foyda orqasidan quvib, atrof muhitni ifloslantirib keladilar.

Bunday qonunbuzarlarga davlat jarima solish, hatto korxonani yopib qo'yishgacha bo'lgan choralarni qo'llaydi. Jarimalar miqdori juda katta bo'lib, bu jarimani to'lagandan ko'ra, tozalovchi moslamalar sotib olib o'rnatish iqtisodiy tomondan foydali bo'lishi ko'zda tutiladi.

Tabiatni bulg'ashning oldini olish bilan bir qatorda tabiat resurslaridan samarali foydalanish ham muhim. Mana shu sabab tufayli tejamkor texnologiyalarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Chunki bunday texnologiyalar tabiat resurslarini tejash bilan, atrof muhitga kamroq zarar yetkazadi.

Bir paytlar O'zbekistonda g'ozapoya, poxol va somonning katta qismi o'tin va xashak sifatida foydalanilgan edi. Hozir shunday texnologiyalar yaratilganki, ular g'ozapoya, poxol va somondan qurilish materiallari va mebellar tayyorlashga imkon beradi. Natijada, qanchadan-qancha o'rmonzorlar saqlab qolinadi.

Shuningdek, hozirda atrof muhitga hech qanday chiqindi chiqarmasdan ishlaydigan, chiqindisiz texnologiyalar yaratish dolzarb masalalardan bo'lib





## Soliqlar ekologiyaga yordam beraoladimi?

Germaniya bilan Niderlandiya hukumatlari yuqoridagi savolga "ha" deya javob bermoqda. Gap shundaki, yaqindagina Germaniya bundestagiga chiqindilarni qayta ishlash bilan mashg'ul korxonalariga beriladigan soliq imtiyozlari ko'lamini kengaytirish haqida takliflar kiritilmoqda. Bundan tashqari, suvni tozalash, quyosh batareyalarida ishlaydigan uskuna va jihozlarni ishlab chiqarish, "ekologik toza" yoqilg'ilarni yaratish borasida tadqiqot olib borishga ixtisoslashgan korxonalar va tashkilotlar ham ancha keng imtiyozlarga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.



Niderlandiya (Gollandiya) da esa 2008- yilning o'rtalaridan boshlab aviabiletga ham soliq solinishi kiritilayotir. Ushbu soliq budjetga qo'shimcha 350 million yevro mablag' tushishini ta'minlaydi. O'z navbatida ushbu mablag'lar atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa ekologik muammolarga qarshi kurashishga sarflanishi aytilayotir.

Ko'plab Yevropaning yirik aviakompaniyalari e'tirozlariga qaramay Gollandiya hukumati o'z maqsadidan chekinmoqchi emas. Zero, mamlakatning ekologik ahvoli keskin chora-tadbirlarni ko'rishni taqazo etmoqda.

1. Yuqoridagi matnlarni o'qib nimani tushundingiz?
2. Quyosh energiyasi bilan ishlovchi jihozlarning ekologiyaga qanday nafi bor deb o'ylaysiz?
3. Gollandiyada ko'rilayotgan ekologiyani saqlashga oid chora qanday samara berishi mumkin? Buning teskari ta'siri ham bo'lishi mumkinmi?

turibdi. Bunday texnologiyaga asoslangan korxonaning tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi eng yuqori, atrof muhitga yetkazadigan zarari esa eng kam bo'ladi.

Umuman olganda, tabiatni avaylab asrash ota-bobolarimizdan qolgan udum bo'lib, bu borada har birimiz o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Xo'sh, buning uchun biz nimalar qilishimiz mumkin?

Eng avvalo, o'zimiz pokiza yurmog'imiz, yashab turgan hovlimiz, mahallamiz, maktabimiz, qolaversa, shahar va qishlog'imizni ozoda tutmog'imiz lozim. Uyimiz va hovlimizdan chiqarayotgan axlatlarni faqat belgilangan joylarga olib borib to'kishimiz kerak.

O'simliklar va hayvonot dunyosini asrab-avaylashimiz darkor. Ko'cha-ko'ylardagi daraxtlarni parvarish qilishimiz, imkoni boricha yangi daraxt ko'chatlarini ko'p o'tqazishimiz kerak.



Ekologiyaga zarari ancha kamaytirilgan gibrid dvigatelli avtomobillarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga butun dunyoda soliqlardan keng imtiyozlar berilishi kuzatilmoqda.



1. Iqtisodiyot bilan ekologiya o'rtasidagi ziddiyat nimada?
2. Atrof muhitni himoya qilish bilan nega asosan davlat shug'ullanadi?
3. Atrof muhitni himoya qilishning qanday tadbirlarini bilasiz?
4. Tejamkor va chiqindisiz texnologiyallarning ekologik muammolarni yechishdagi roli nimada?
5. Atrof muhitni muhofaza qilish ishida siz qanday xatti-harakatlaringiz bilan hissa qo'shishingiz mumkin?

**ERGASHVOY SARIQOV, BAHODIR HAYDAROV,  
SHERZODBEK SARIQOV, KOMILJON ALLAMJONOV**

## **IQTISOD VA SOLIQ SABOQLARI**

*Umumta'lim maktablarining  
6-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — “Yangiyul poligraph service” — 2008

Muharrir — *R. Ko'chkarov*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahhih — *Sh. Oripova*

Sahifalovchi — *O. Mamadaliyev*

*Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.10.08. Bichimi 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
«Arial» garniturasida. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.  
Nusxasi 100000. Buyurtma N 69.*

**“Yangiyul poligraph service” MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.**